# XOJA AHMAD YASAVİ VA UNİNG AVG'ONİSTON SHİMOLİDAGİ QO'LYOZMA NUSXASI

**Abdul Khalil AHMADOUGHLİ**
Asis. Prof. Balx Universiteti Til va Adabiyot Fakulteti,
O'zbek Tili va Adabiyotı Kafedrasi, Balx/AVG'ONİSTON
Khalil.ahmadoughli1@gmail.com
ORCID ID: 0000-0003-4835-7837

**Annotatsiya:** Xoja Ahmad Yasavi, Turk-İslom o'lamining buyuk mutasavvuf sho'irlaridan biridir. O, milodi 11. Asrning ikkinchi yarmida hozirgi Qozoqiston'ning Chimkent shahrining yaqinidagi Sayrom qasabasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limotini otasi İbrohim otadan o'rgangan. Otasining o'limidan so'ngra Arsalon Bobo'ning yonida o'qishga boshlagan. Arsalon Bobo'ning vafotidan keyin davrining ilim va madaniyat markazi bo'lgan Buxoro'ga qaytgan. Buxoro'da Shaix Hamadoni bilan tonishgan va uning yonida o'qishga boshlagan. Hamadoni'ning o'limidan so'ngra Yasi'ga qaytgan. Yasi'da Yasaviya tariqatini qurub, o yerdagi Turki xalplarga dini, tasavvufi va axloqi tushunchalarini o'rgatmoqqa boshlagan. U'mrining so'ngi yillarida yer ostida qurdirgan hujrasiga chekilib, hayotining oxirigacha i'bodat bilan shug'ullangan. Nihoyat milodi 1166 yilida vafot etgan.

Yasavi'dan to'rt manzum va mansur asar miras qolgan. Ulardan biri Divon-i Hikmat'dir. Divon-i Hikmat'ning farqli qo'lyozma nusxaları mavjud bo'lgan. Ushbu nusxalardan biri ise, Avg'oniton'ninga shimolida topilgan nusxadir. Bu nuxsa, 194 bet va ikki bo'limdan i'boratddir. Birinchi qisimi manzumdır. Chig'atoy Turkisi bilan yozilgan va 96 hikmatdan i'boratdir. İkinchi bo'limi ise, mansurdur. Bu bo'limda ikki tasavvufi risola, bir vasiyatnoma va bir munojotnıma yer olmoqdadir. Ushbu nusxa, 1276 yilida Mullo A'ziz Qul isimli bir kotib tamonidan kitobat qilingan.

**Kalit So'z:** Xoja Ahmad Yasavi, Yasi, Divon-i Hikmat, Mullo A'ziz, Avg'oniston.

**Abstract:** Khaja Ahmad Yasavi is one of the great Sufi poets of the Turkish-İslam World. He was born in the second half of the 11th century in the town of Sayram, which is located near the Chemkent city of present-day Kazakhstan. He received his initial education from his father, İbrahim Ata. After his father's death, he started to study with Arsalan Bab. After the death of Arsalan Bab, he returned to Bukhara, the center of science and civilization. He met Shaikh Hamadni in Bukhara and began to study with him. He returned to Yasi after Hamadani's desth. He founded the Yasaviya Sect in Yasi anad began to explain the religious, mystical and morak thoughts of the Turkish peopales there. He retired to the room he had built in

the underground in the last years of his life, and he was engaged in worship until the end of his life. Finally, he died in 1166 years.

Yasavi left a legacy of four poetic and prose Works. One of them is Divan-i Hikmat. There ara many diffiernt copies of Divan-i Hikmat. One of the copies is the copy found in the North of Afghanistan. This copy contains 194 pages and two parts. The first part is poets. It is written in Chagatai Turkish and contains 96 Wisdom. The second part ise prose. This section includes two mystical treatises, a testament and an appeal. This copy was inscribed in 1276 bt a scribe named Molla Aziz Qul.

**Key Words:** Khaja Ahmad Yasavi, Yasi, Divan-i Hikmat, Molla Aziz, Afghanistan.

**Xoja Ahmad Yasavi'ning Hayoti:**


Turk dunyosining buyuk mutasavvuf sho'ir va yozuvchisi Turkiston piri Qul Xoja Ahmad Yasavi 11. asrning ikkinchi yarimida hozirgi Qozoqiston'ning Chimkent shahrining yaqinidagi Sayrom qishlog'ida Shaix İbrohim Oto oilasida dunyoga kelgan va keyinchalik Yasi (Turkiston) shahrida yerlashgan. Yasavi, Yasi shahrida yashagani uchun Yasavi maxlasini qoʻllangan. Ahmet Bican Ercilaun bu haqda shunday bilgi bermoqdadir: Yasavi maxlasi Yasi shahriga o'iddir. Qozaqiston'nin Yasi shahri hozirgi Turkiston sifatida isimlandirilgan. [Ercilasun, 2016:332].

Yasavi'ning otasi İbrohim Oto, oʻz davrining muhim mutasavvuf kishilaridan biri boʻlgan. Yasavi dastlabki dini ta'limotini oʻz otasining yonida boshlagan. Yasavi yetti yoshida ekan otasi vafot qilgan. Onasi Aʻysha Xotun ham otasidan qancha vaqt oldin dunyodan koʻz yumgan. Bu sababdan otasining oʻlimidan soʻngra opasi Gavhar Shahnoz bilan Yasi shahriga toshingan. Yasi'da Shaix Arsalon Bob'ning yonida oʻqishga boshlagan.[Tosun, 2000: 21].

Manqibalarga koʻra, Arsalon Bobo ashobdab biri boʻlgan. Payg'ambarimiz Hazrat-i Muhammad'dan amonat olgan xurmoni Yasi'ga kelib egasi Ahmad Yasavi'ga topshiran. [Oʻzkoʻsa, 2006: 295].

Arsalon Bobo bir qancha vaqtdan keyin vafot etgan. Yasavi, Arsalon Bobo'ning vafotidan soʻngra İslom dinining asoslarini yaxshi shakilda oʻrganish uchun davrinig buyuk bilim va madaniyat markazi boʻlgan Buxora shahriga yetib kelgan. Bu yerda Shaix Hamadoni bilan tonishgan. Uning yonida dini va tasavvufi bilimlarni oʻrgangan. Yigirma yoshida muridlik maqomini yutuqlar bilan tugatgan. Oʻzi bu haqda shunday deb aytgan:

Yoshim etti yigirmaga oʻttum maqom  Bahamdulloh pir xizmatin qildim tamom



[Ushbu qoʻlyozma nusxa, Hikmet:1, bayt:15, bet: 9]

Shaix Hamadoni ham bir necha yil soʻngra vafot etgan. Yasavi shaixining oʻlimidan keyin Yasi shahriga qaytgan. Yasi’da bir dargoh qurib o yerdagi Turki xalqlarga dini, tasavvufi va axloqi tushunchalarni oʻrgatmoqqa boshlagan. [Ja’farov, 2004:4].

Yasavi, u’mrining soʻngi yillarida dargohining ostida bir hujra qurdirgan. 62 yoshini to’ldirib, dunyodan qoʻl yuvib, Hazrat-i Muhammad uchun motam tutub, Dushanba kuni ushbu hujraga yerlashgan. U’mrining soʻngiga qadar bu hujrada i’dodat va riyozat qilgan. O’zi bu haqda shunday degan:

Subh-i sodiq dushanba kun yerga kirdim
Mustafog’a motam tutum kirdim mano
Oltmish uchda sunnat dedi bildim mano
Mustafog’a motam tutum kirdim mano



[Ushbu nusxa, Hikmet:9, bayt:1-2, bet: 22]


Yasavi, milodi 1166 yilida dunyodan koʻz yumgan. 15. asrda Amir Temur Xoja Ahmad Yasavi’ning maqbarasini ziyorati uchun Turkiston shahriga kelgan. Ziyorat qilganidan soʻng bu yerni bir ziyoratgoh shaklida tuzilishi uchun buyrug’ bergan. Bir necha yilda, maqbarasi, masjidi va dargohi bir hisor shaklida tuzatilgan. Yasavi’ning maqbarasi hozirgi kunda Oʻrta Osya’ning eng muhim ziyoratgohlaridan biri sanaladi. [Tatcı, 2016:15].

**Yasavi Asarlarining Avg’oniston’dagi Nusxasi:**

Ushbu qoʻlyozma nusxa, Avg’onistan’nin shimolidagi Faryob viloyati Andhuy tumanida topilgan. Asar, manzum va mansur olaroq iki boʻlimdan i’boratdir. Asarning manzum qismi Eski O’zbekcha (Chig’atoy Turkisi) bilan yozilgan va bu qisimda Yasavi’ning 96 hikmati yer olmoqdadir. Yasavi, hikmatlariniTurki til bilan qalamga olganligining sababini bunday ochiqlagan:

O’limlar, bizning aytg’an Turkini yoqtirmaydilar. Agar ma’nisini tushunsalar sevinib boshlaridagi boʻrk[43]larini yerga kʻoyardilar. Oyat va hadisning ma’nisi Turki til bilan muvafiq keladi. O’limlardan soʻrslar, koʻngil mulkini ochib beradi. Oʻqib oʻqib a’mal qilmagan o’limlar, qiyomat kunida qirq eshakning yukini koʻtaradi. Munga a’mal qilgan o’limlar dinimizga chirog’ boʻladi. Kiyimining rangiga boqmoq ham muboh boʻladi. Miskin Xoja Ahmad Yasavi o’limlarga muvofiqdir, ammo Forsi Tilni yaxshi bilmagani uchun Turki til bilan soʻz yuritadi.

Xo’shlamaydur o’limlar bizni aytgʻon Turkini
Ma’nisigʻa borsalor yerga koʻyar boʻrkini
Oyat hadis ma’niga Turki kelur muvofiq
O’limlardin soʻrsalar ochar koʻngil mulkini
Oʻquy oʻquy o’limlar a’mal qilmay qolurlar
Qiyomat kun koʻtarur qirq himorning yukini
A’mak qilsa o’limlar dinimizni chirog’i
Muboh boʻlur koʻrsangiz rang u ruyi koʻrkini
Miskin Ahmad Yasavi o’limlarga muvofiq
Forsi Tilni Bilmayur xub aytadur Turkini



[Ushbu qoʻlyozma nusxa, Hikmet:15, bet 30]

Ushbu boʻlimda yer olgan hikmatlar a’ruzning hijo oʻlchuvi (4+3=7 va 4+4+4=12 ) bilan yozilgan.

Manzum qismining soʻngi betida, asarning 1276 yilida Mullo A’zim oʻg’li Mullo A’ziz Qul isimli bir kotib tamonidan qaroko’l viloyatida kitobat qilinganligi aytilgan. Ammo, kitobat yilini milodi vayo hijri boʻlganlini va bu qoʻlyozmani qaysi nusxaning yuzidan yozganligini aniqlamagan. Agar hijri 1276 yilida yozilgan bo’lsa, asar 168 yillik bir torizga ega boʻladi. Agar milodi 1276 yilida yozilgan boʻlsa, asar 747 yillik bir torixga ega boʻladi va Yasavi’ning vafotidan 110 yil sonʻgra qalamga olingan deb aytishimiz mumin.

[43] Boshliq: boshga keyiladigan kiyim.

Asarning mansur qismida ise, ikki tasavvufi risola, bir vasiyatnoma va bir munojotnoma yer olmoqdadir.

**Ushbu Nusxaning Tavsifi:**

Bu nusxa, Avg’oniston’ning shimolidagi Foryob viloyati Andxuy tumanidan qo‘lga keltirilgan. Asar, Nastaliq yozuvi bilan yozilgan va 194 betdan i’boratdir va har betda 15 satir yer olmoqdadir. Asarning betlari 27x15 cm va qalinligi 2cm dir. Asar, abrishim qog’azida yozilgan. Asarning qapog‘ qismi hayvon terisi bilan qoplangan.

**Ushbu Nusxaning muhtavosi:**

Bu nusxa, to‘plam 196 bet va ikki bo‘limdan i’boratdir. Asarning birinchi qismi nazim qismidir ki Chig‘atoy Turkisi bilan qalamga olingan va 140 betdan i’boratdir. Bu yerda Xoja Ahmad Yasavi’ning bir munojoti va 96 hikmati yer olmoqdadir ki to‘plam 18839 baytdir. Ushbu hikmatlar a’ruzning hijo o‘lchuvi bilan yozilgan.

İkkinchi qismi ise, nasirdir va 54 betdan i’boratdir. Forsi til bilan yozilgan. İkki risola, bir vasiyatnoma va bir munojotnomadan tuzilgan. Birinchi qisimi, Xoja Ahmad Yasavi’ning tariqat haqqidagi risolasidir va o‘n bobdan i’boratdir:

1. Bob: Dar bayon-i ahkom-i tariqat
2. Bob: Dar bayon-i arkon-i tariqat
3. Bob: Dar bayon-i vojibot-i tariqat
4. Dar bayon-i sunnat-i tariqat
5. Bob: Dar bayon-i mustahab-i tariqat
6. Bob: Dar bayon-i odab-i tariqat
7. Bob: Dar bayon-i irodat-i tariqat
8. Bobul-muhabbat
9. Bobul- ma’rifat
10. Bob-i fi bayaon-i darvishi.

İkkinchi risola ise, Shaix Shahobuddin Suhravardi’ning tariqat haqqidagi risolasidir. Uchinchi qismi Hazrat-i Muhammad’ning vasiyatnomasi va to‘rtnchi qismi ise Hazrat-i Muso’ning munojotnomasidir.

**XULAOSA**

Ushbu maqolada, birinchidan Turk dunyosining buyuk mutasavvuf sho’ir va yozuvchisi bo‘lgan Qul Xoja Ahmad Yasavi’ning hayoti va adabi kishiligi haqqida ma’lumot berilgan. Keyinchalik, Yasavi asarlarini Avg’oniston’dagi yangi topilgan nusxasi har tamonlama tekshirilib, ushbu nusxaning mutavosi, tasvsifi va boshqa xususiyatlari haqqida bilgi berilgan.

Darhaqiqat, ushbu tadqiqot **Xoja Ahmad Yasavi va Uning Avg’oniston Shimolidagi Qo‘lyozma Nusxası** nomlangan maqola daslabki tadqiqotlardan biri bo‘lib, O‘zbek adabiyotı sohalariga hissa qo‘shish maqsadi bilan qalamga olinmoqdadir.

**Foydalangan adabiyotlar:**

Ercilasun, Ahmet Bican, (2016), "Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi", Akçağ Yay. 17. Baskı, Ankara.

Tatcı, Mustafa, (2016). "Divan-ı Hikmet-i Hoca Ahmed Yesevi", Merkez Repro yay. , Ankara

Tosun, Cemal, (2000). "Hoca Ahmet Yesevi, Hayatı, Eserleri ve Toplumü Eğitme Metodu" , Dini Araştırmalar, Cilt 2, Sayı 6, s. 119-131, Türkiye.

Özköse, Kadir, (2006). "Ahmat Yesevi ve Divan-ı Hikmet", Tasavvuf: İlim ve Akademik Araştırma Dergisi, yıl:7, sayı:16, s.293-312.

Ceferov, Nezami, (2004), "Ehmed Yesevi Divan-ı Hikmet", Çaşıoğlu Neşriyatı, Azerbaycan.

**Ushbu Nusxadan Numunalar**

